

O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

O'sarova Mahfuza Abduqodir qizi

ToshDO'TAUning 3-kurs talabasi

+998884553404

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarda o'qib tushunish ko'nikmalarini shakllantirishning zarurati, bosqichlari va samarali metodlari tahlil qilinadi. Matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning tafakkuri, tahlil qilish va mulohaza yuritish qobiliyati rivojlanishi ilmiy asosda yoritiladi.

Abstract: This article analyzes the need, stages, and effective methods for developing reading comprehension skills in students. The development of students' thinking, analysis, and reasoning skills through working on the text is scientifically highlighted.

Абстрактный: В статье анализируются необходимость, этапы и эффективные методы развития навыков понимания прочитанного у учащихся. Научно обосновано развитие у учащихся навыков мышления, анализа и рассуждения в процессе работы над текстом.

Kalit so'zlar: o'qib tushunish, matn, tafakkur, tahlil, savol-javob, metodika.

Keywords: reading comprehension, text, thinking, analysis, questions and answers, methodology.

Ключевые слова: понимание прочитанного, текст, мышление, анализ, вопросы и ответы, методология.

Kirish

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish muhim metodik vazifalardan biri

hisoblanadi. Bu ko‘nikmalar esa, avvalo, matnni o‘qib tushunish orqali rivojlanadi. O‘qib tushunish — bu nafaqat matnni texnik jihatdan o‘qish, balki uning mazmunini anglash, muallif niyatini tushunish, asosiy g‘oyani aniqlash, bevosita va bilvosita ma’nolarni farqlay olish, mantiqiy xulosa chiqarish jarayonidir.

Psixolingvistik tadqiqotlar (L.S. Vygotskiy, A.A. Leontyev, D.B. Elkoninlar)ga ko‘ra, matnni tushunish tafakkurning faol ishlashi, e’tibor, xotira, til vositalarini

anglash va muomala tajribasi bilan chambarchas bog‘liq. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasiga asoslanib aytish mumkinki, o‘quvchining matnni mustaqil tahlil qila olish darajasi uning intellektual o‘lishida muhim omildir. Shu bois, o‘qib tushunish – bu nafaqat lingvistik, balki kognitiv (bilish), sotsiomadaniy va shaxsiy rivojlanish jarayoni sifatida qaralishi lozim.

Bugungi kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’limda o‘quvchilarning bilim olish jarayonida matn bilan ishlash, uni tushunish va unga tanqidiy yondashish malakalarini shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Chunki PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarida ham aynan o‘qib tushunish va matnga asoslangan fikr bildirishi o‘quvchilarning asosiy savodxonlik mezoni sifatida e’tirof etiladi. Bu esa maktabda o‘qib tushunish bo‘yicha tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni taqozo etadi.

G.A.Asilova - ped. fan. doktori (DSc) ToshDO‘TAU professori o‘qib tushunish

haqida shunday deydi: “O‘qib tushunish - nutqiy faoliyatning turlaridan biri sifatida murakkab psixofiziologik jarayon bo‘lib, faqat muayyan lingvistik poydevor, ya’ni fonetik va leksik-grammatik bilimlar asosida amalga oshiriladi. O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda ushbu jarayonning 2 tomoni, ya’ni yozma xabarni qabul qilishga tayyorlaydigan o‘qish texnikasini hamda axborotni sodir bo‘lgan nutqiy faoliyat mahsuli sifatida anglashni inobatga olish zarur. Buning muhim sharti esa tizimli va maqsadga qaratilgan maxsus mashqlarni bajarishdir. O‘qishni nazorat qilish obyekti matnning til materialidir, uning mazmunini tushunishdir. Nutqiy faoliyatning barcha turlari bo‘yicha o‘zaro bog‘liq ta’limning maqsadga muvofiqligi va samarasi haqidagi metodik qoida

o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish boshqa nutqiy ko‘nikmalar, avvalambor gapirish ko‘nikmalari bilan parallel tarzda rivojlantirilishini taqozo etadi¹”.

7-sinf ona tili darsligidan olingan quyidagi matn misolida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga oid metodlar tavsiya etamiz.

Biz “musiqa” so‘zini ko‘p ishlatamiz. Bu so‘z tilimizga boshqa tildan kirib kelgan bo‘lsa-da, allaqachon bizga butunlay singishib ketgan. Xo‘sh, bu so‘zning tarixi va kechmishi qanday? Musiqa yunoncha “muzika” so‘zidan olingan bo‘lib, uning tub ildizi “muzalar san’ati” degan ma’noni bildirgan. “Muza” – yunon mifologiyasidagi she’riyat, san’at va fan homiylari sanalgan 9 ma’budning umumiy nomi bo‘lgan. Tilimizda ishlatiladigan “muzey” so‘zining ham tub ildizi shunga borib taqaladi va u “muzalar ibodatxonasi” degan ma’noni anglatgan. Eshqobil Shukur, “Boboso‘z izidan²”.

1. O‘quvchilarni mavzu bilan tanishtirish, ularni matnni o‘qishga ruhlantirish.
2. Matnni ohangdorlik bilan o‘qish, asosiy g‘oyani topishga yo‘naltirish.
3. Matndagi muhim jihatlarni yoritish uchun ochiq va yopiq savollar berish.
4. Matn mazmuni yuzasidan bahs-munozara tashkil qilish, o‘quvchilarning shaxsiy fikrini bildirishga rag‘batlantirish.
5. O‘qilgan matn asosida asosiy g‘oyani ajratib olish, hayotiy xulosalar chiqarish.

Quyida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bir nechta samarali metodlar tavsiya qilamiz:

K-I-W jadvali: Nimani bilaman? Nimani bilishni istayman? Nima o‘rgandim? Savollari berilgan bo‘adi va bu savollarga o‘quvchi matnni o‘qishdan oldin va o‘qib bo‘lgandan keyingi xulosalarini yozish kerak bo‘ladi.

¹ G.A. Asilova. Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo‘llanma.– T., 2020. – 128 b.

² Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. –224 b. 23-bet.

Nimani bilaman?	Nimani, bilishni istayman?	Nima o'rgandim?)

“Insert” texnologiyasi: Matnni belgilar bilan o'qish: **Y** — **yangi ma'lumot**, ya'ni matnni o'qish jarayonida o'quvchi uchun oldin duch kelmagan ma'lumotlarni belgilash, + — **bilganim**, bunda esa avvaldan tanish bo'gan ma'lumotlarni belgilaydi, ? — **tushunarsiz joy**, bilamizki har bir matn o'qiyotganlar uchun to'laonli tushunarli bo'lmaydi, shuning uchun matnning tushunarsiz qismini yoki so'zlar belgilash va ularning ma'nosini qidirish orqali mazmun yanada yoritiladi.

Klaster tuzish: Asosiy fikr atrofida bog'liq fikrlarni grafik shaklida ifodalash.



Rolli o'yinlar: Matn qahramonlari obraziga kirib, vaziyatni jonlantirish orqali matn mazmuni, nima aks etgani haqida anglash osonlashadi.

“Qismlarga ajratib o'qish” metodi (segmentatsiya)

Mazmuni: Matnni mantiqiy bo'limlarga ajratib, har bir bo'lim ustida alohida ishlanadi.

Misol: O‘quvchilar avval matnning kirish qismini o‘qib, “Bu qismda qanday muammo ko‘tarilgan?” degan savolga javob beradilar. So‘ngra rivoj va xulosa qismlari ustida ishlanadi. Bu usul tafakkur izchilligini rivojlantiradi.

“Savol-javob daraxti” (Tree of Questions)

Mazmuni: Matn asosida asosiy savollar “ildiz”, qo‘shimcha savollar “shoxlar” sifatida grafik shaklda tasvirlanadi.

Misol:

Ildiz: Asosiy mavzu nima?

Shox: Qahramon bu qarorga nima uchun keldi? Muqobil yo‘l bormi?

Bu usul matnning chuqur tahliliga olib keladi.



“Besh barmoq” texnologiyasi

Mazmuni: Har bir barmoq ma’lum topshiriqni bildiradi:

Bosh barmoq: Menga yoqdi (nima yoqdi?)

Ko‘rsatkich: Muhim (asosiy g‘oya nima?)

O‘rta barmoq: Men bilan bahslashadi (nima noto‘g‘ri deb o‘ylayman?)

Nomsiz barmoq: Men uchun yangilik

Kichik barmoq: Xotirada qolgan nuqta

Bu metod o‘quvchilarni matnga shaxsiy munosabat bildirishga o‘rgatadi.

“Pazllar usuli” (Jigsaw method)

Mazmuni: Matn turli qismlarga bo‘linadi va har bir guruh alohida qismini o‘rganadi, so‘ng o‘z qismini boshqalarga tushuntiradi.

Misol: Har bir guruh matnning bir bobini o‘qib, asosiy g‘oyani tushuntirib beradi. Bu yondashuv jamoaviy fikrlashni rivojlantiradi.

“Matnni davom ettir” usuli

Mazmuni: O‘quvchilar berilgan matnni o‘qib, uni o‘z tasavvurlariga asoslanib davom ettiradilar.

Misol: “Qahramon qochishga qaror qildi... Keyin nima bo‘ldi?”

Bu metod ijodiy tafakkur va mantiqiy ketma-ketlikni shakllantiradi.

Xulosa: O‘qib tushunish ko‘nikmasi — o‘quvchining tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatining asosi hisoblanadi. Ushbu ko‘nikmani shakllantirishda o‘qituvchining metodik yondashuvi, matn tanlovi va o‘quvchiga yo‘naltirilgan interaktiv faoliyat muhim o‘rin tutadi. Shu bois, darslarda o‘qib tushunishga oid topshiriqlar, savol-javoblar, tahliliy ishlanmalar orqali o‘quvchilarning intellektual salohiyati oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ona tili 7 [Matn]: 7-sinf uchun darslik / K. M. Mavlonova. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. –224 b.
2. Muxitdinova X.S. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (o‘zga tilli guruhlarda) / Monografiya. T., 2021.
3. G.A. Asilova. Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo‘llanma.– T., 2020. – 128 b.
4. Ismailov A. v.b.,. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash. – Toshkent, «Sharq», 2019, 92 b.